



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

АФАЗИЯ НУТQ НУQСОНИ БО'ЛГАН БЕМОРЛАР БИЛАН ОЛИБ БОРИЛАДИГАН ЛОГОПЕДИК ИШЛАР ТИЗИМИ

Turdaliyeva Shahlo Husnitdinovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada afaziya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bemorlar bilan olib boriladigan logopedik ishlar tizimi, ayniqsa kasallikning o'tkir davrida nutqni tiklash jarayonining ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda afaziyaning kelib chiqish sabablari, uning psixologik va neyropsixologik xususiyatlari, bemorlarda kuzatiladigan nutq va bilish faoliyatidagi buzilishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bemorlarning nutqiy faoliyatini qayta tiklashda qo'llaniladigan korreksion-logopedik mashg'ulotlarning asosiy tamoyillari, metodlari va tashkil etish shakllari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Maqolada reabilitatsiya jarayonida logoped, shifokor va psixolog hamkorligining ahamiyati, bemor shaxsini hisobga olgan holda individual yondashuvni qo'llash zarurligi asoslab beriladi. Bundan tashqari, nutqni tiklash jarayonida kommunikativ faoliyatni rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqni bosqichma-bosqich qayta shakllantirish, shuningdek bemorni ijtimoiy muhitga moslashtirish masalalari ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari afaziya bilan og'rigan bemorlar bilan olib boriladigan logopedik reabilitatsiya ishlarini samarali tashkil etish va ularning nutqiy hamda ijtimoiy faoliyatini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: afaziya, logopedik korreksion ish, o'tkir davr, og'zaki nutqni tiklash.

СИСТЕМА ЛОГОПЕДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ С ПАЦИЕНТАМИ С АФАЗИЕЙ

Турдалиева Шахло Хуснитдиновна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье рассматривается система логопедической работы с пациентами, имеющими речевое нарушение – афазия, а также научно-методические основы восстановления речи в остром периоде заболевания. В исследовании анализируются причины возникновения афазии, ее психологические и нейropsихологические особенности, а также нарушения речевой и познавательной деятельности у пациентов. Особое внимание уделяется принципам, методам и формам организации коррекционно-логопедических занятий, направленных на восстановление речевой функции. В статье обосновывается значимость комплексного подхода в реабилитации пациентов, включающего сотрудничество логопеда, врача и психолога, а также необходимость индивидуального подхода к каждому пациенту. Кроме того, рассматриваются вопросы развития коммуникативной деятельности, поэтапного восстановления устной и письменной речи и социальной адаптации пациентов. Полученные результаты подчеркивают важность правильной организации логопедической реабилитации для повышения эффективности восстановления речи и социальной активности пациентов с афазией.

Ключевые слова: афазия, логопедическая коррекция, острый период, восстановление речи.

THE SYSTEM OF SPEECH THERAPY WORK WITH PATIENTS WITH APHASIA

Turdaliyeva Shahlo Husnitdinovna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the system of speech therapy work with patients who have aphasia, focusing on the scientific and methodological foundations of speech restoration during the acute phase of the disorder. The study analyzes the causes of aphasia, its psychological and neuropsychological characteristics, and the disturbances observed in speech and cognitive activities of patients. Special attention is paid to the principles, methods, and organizational forms of corrective speech therapy sessions aimed at restoring speech functions. The article also highlights the importance of a comprehensive rehabilitation approach involving collaboration between speech therapists, physicians, and psychologists, as well as the necessity of an individual approach to each patient. Furthermore, the issues of developing communicative activity, gradual restoration of oral and written speech, and social reintegration of patients are discussed. The findings emphasize the significance of properly organized speech therapy rehabilitation in improving speech recovery and social functioning of individuals with aphasia.

Keywords: aphasia, speech therapy correction, acute phase, oral speech restoration.

Zamonaviy logopediya va neyropsixologiya fanlarida nutq buzilishlarini o'rganish, ularni barvaqt aniqlash hamda samarali reabilitatsiya qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Nutq faoliyati insonning ijtimoiylashuvi, muloqot jarayonida faol ishtirok etishi, shaxs sifatida rivojlanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli nutqning buzilishi nafaqat kommunikativ faoliyatning izdan chiqishiga, balki shaxsning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va bilish jarayonlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutq buzilishlari orasida afaziya alohida o'rin egallaydi. Afaziya markaziy asab tizimining organik zararlanishi natijasida yuzaga keladigan murakkab nutq buzilishi bo'lib, bunda ilgari shakllangan nutq faoliyati qisman yoki to'liq izdan chiqadi. Ko'pincha afaziya bosh miya qon aylanishining buzilishi, insult, bosh miya jarohatlari, shuningdek, miya o'smalari yoki boshqa nevrologik kasalliklar natijasida yuzaga keladi. Ushbu holat nafaqat nutq tizimining, balki oliy psixik funksiyalarning – xotira, diqqat, tafakkur, praksis va gnozis jarayonlarining ham buzilishiga olib kelishi mumkin.

So'nggi yillarda nevrologik kasalliklar sonining ortib borishi natijasida afaziya bilan og'rigan bemorlar soni ham ko'payib bormoqda. Bu esa mazkur muammoni chuqur ilmiy o'rganish, reabilitatsiya jarayonlarini takomillashtirish hamda logopedik yordamni tizimli tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa kasallikning o'tkir davrida olib boriladigan logopedik ishlar bemorning nutq funksiyalarini tiklashda muhim rol o'ynaydi. Chunki aynan shu davrda to'g'ri tashkil etilgan reabilitatsiya jarayoni patologik belgilar mustahkamlanishining oldini olishga va tiklanish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi.

Afaziya bilan og'rigan bemorlarni reabilitatsiya qilish ko'p tarmoqli jarayon bo'lib, unda shifokor, logoped, psixolog va boshqa mutaxassislarining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Logopedik ishlar bemorning nutq faoliyatini qayta tiklash, kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirish hamda uning ijtimoiy hayotga qayta moslashuvini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Bunda korreksion-logopedik mashg'ulotlar individual yondashuv asosida tashkil etilib, bemorning psixologik holati, nutq buzilishining turi va darajasi, shuningdek saqlanib qolgan funksiyalar hisobga olinadi.

Adabiyotlar tahlili

Afaziya muammosi nevrologiya, neyropsixologiya va logopediya fanlari kesishgan nuqtada o'rganiladigan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda afaziyaning kelib chiqish sabablari, uning klinik ko'rinishlari hamda nutqni tiklash jarayonining

metodik asoslari keng yoritilgan. Tadqiqotchilar tomonidan afaziya bilan ogʻrigan bemorlarning nutq faoliyatini tiklashda kompleks reabilitatsiya yondashuvining ahamiyati alohida taʼkidlanadi.

Neyropsixologiya sohasidagi tadqiqotlarda afaziya nutq tizimining buzilishi bilan bir qatorda, boshqa oliy psixik funksiyalarning ham zararlanishi bilan bogʻliq ekani qayd etiladi. Jumladan, nutq jarayonining buzilishi miya faoliyatining murakkab tizimli tuzilishi bilan izohlanadi va bu jarayonda turli analizator tizimlarining oʻzaro bogʻliqligi muhim rol oʻynaydi. Shu jihatdan afaziyani oʻrganishda neyropsixologik yondashuv muhim metodologik asos hisoblanadi [2, 84–86].

Ilmiy manbalarda insult yoki bosh miya jarohatlaridan soʻng yuzaga keladigan afaziyada nutqni tiklash jarayoni erta bosqichda boshlanishi zarurligi taʼkidlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, reabilitatsiya jarayonining dastlabki davrida olib borilgan logopedik mashgʻulotlar nutq faoliyatining tiklanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi va patologik simptomlarning mustahkamlanib qolishining oldini oladi [1, 12–15]. Shu bilan birga, bemorlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan mashqlar tizimi nutqni qayta shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Logopedik amaliyotda artikulyatsion apparat faoliyatini faollashtirish, fonematik eshituvni rivojlantirish hamda nutqning ritmik-melodik tomonlarini tiklashga qaratilgan mashgʻulotlar keng qoʻllaniladi. Bu borada logopedik mashqlar tizimi bemorlarning nutq faoliyatini bosqichma-bosqich tiklashga xizmat qilishi ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan [3, 64]. Ayniqsa, artikulyatsion gimnastika va maxsus nutq mashqlari nutq apparatining harakat faolligini tiklashda samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Afaziyani tiklash boʻyicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda erta reabilitatsiya bosqichida differensial yondashuv muhimligi taʼkidlanadi. Bunda afaziyaning turli shakllarini aniqlash, bemorning saqlanib qolgan nutq va bilish imkoniyatlariga tayangan holda tiklovchi taʼlimni tashkil etish zarurligi koʻrsatib oʻtiladi [4, 23–27]. Mazkur yondashuv bemorning kommunikativ faoliyatini qayta shakllantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda neyroeabilitatsiya jarayonida sensor integratsiya, emotsional holatni barqarorlashtirish hamda kompleks pedagogik yondashuvlarni qoʻllashning samaradorligi ham qayd etilgan. Tadqiqotchilar bunday metodlar nutqni tiklash jarayonida bemorning psixologik holatini yaxshilash, uning ijtimoiy moslashuvini taʼminlashga yordam berishini taʼkidlaydilar [5, 112–115].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda afaziya nutq nuqsoni boʻlgan bemorlar bilan olib boriladigan logopedik ishlar tizimini oʻrganish maqsadida nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik va neyropsixologik adabiyotlar tahlili, kuzatish, suhbat hamda logopedik tekshiruv metodlari qoʻllanildi. Shuningdek, afaziya bilan ogʻrigan bemorlarning nutq faoliyatini baholash va tiklash jarayonida korreksion-logopedik mashgʻulotlarning samaradorligi tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologik jihatdan neyropsixologik yondashuv, nutq funksiyalarini bosqichma-bosqich tiklash tamoyillari hamda differensial logopedik taʼsir metodlariga asoslandi. Bunda bemorlarning nutq buzilishining turi, darajasi va saqlanib qolgan psixik funksiyalari hisobga olindi. Shu bilan birga, tiklovchi taʼlim jarayonida maxsus logopedik mashqlar tizimi va artikulyatsion gimnastika usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar afaziya bilan ogʻrigan bemorlarda nutqni tiklash jarayonini samarali tashkil etish hamda logopedik reabilitatsiya ishlarini takomillashtirish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama

Nutq buzilishlarining har xil turlari orasida afaziya alohida oʻrin tutadi. Buning sababi shundaki, afaziyada nafaqat shakllangan nutq funksiyasi, balki boshqa oliy psixik jarayonlar,

jumladan, praksis ham buziladi.

Afsuski, bunday bemorlar soni ortib bormoqda, shu bilan birga, ularga kompleks ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatish dolzarb muammolardan biridir. Kasallikning o'tkir davrida shikastlanish o'chog'ining tarqoqligi tufayli dinamik, efferent, afferent, kompleks motor afaziyada og'iz, barmoqlarning kinetik va kinestetik apraksiya ko'rinishlari kuzatiladi.

Reabilitatsiya bolaga hayotda zarur bo'lgan maishiy ko'nikmalarni amalga oshirishning yangi kompensator usullarini o'rgatishga qaratilgan.

T.G. Vizel va V.M. Shklovskiy afaziya bilan og'rigan bolalarni reabilitatsiya qilish samaradorligini ta'minlaydigan chora-tadbirlar majmuasini ko'rib chiqadilar:

- dori-darmonlar bilan davolash;
- umumiy massaj, LFK, fizioterapiya;
- individual logopedik ishni o'z ichiga olgan tiklovchi ta'lim;
- psixoterapiya, shu jumladan oilaviy psixoterapiya.

Afaziya nutqni tiklash usullariga differensial yondashuvni ilmiy asoslash masalalari buzilgan ruhiy funksiyalarni tiklash muammosining eng muhim jihati hisoblanadi.

Motor afaziyada bemorlarda nutq buzilishlarini bartaraf etish jarayonida biroz emotsional befarqlik, eyforiya kuzatiladi. Ba'zan yig'lash yoki kulish, agressiya holatlari paydo bo'ladi. Bemorlar mashg'ulot yoki tekshiruvdan bosh tortishlari, tajovuzkor bo'lishlari mumkin.

Logoped afaziya nutq nuqsoni bo'lgan bemorlar bilan ishlash jarayonida ularning psixologik holati, nutq buzilishining turi va darajasi, shuningdek saqlanib qolgan bilish jarayonlarini hisobga olgan holda o'z faoliyatini rejalashtiradi. Bunda korreksion-logopedik ishning asosiy maqsadi bemorni mavjud nuqsonga shunchaki moslashtirish emas, balki nutqni insonning muhim psixik funksiyasi sifatida qayta tiklashga qaratiladi. Logopedik mashg'ulotlar jarayonida bemorning nutqiy muloqot faoliyatini tiklash, uning atrofdagilar bilan samarali aloqa o'rnatish imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, nutqni tiklash jarayonida faqat nutqning ayrim elementlarini shakllantirish emas, balki uning asosiy kommunikativ funksiyasini to'liq tiklashga alohida e'tibor qaratiladi. Reabilitatsiya jarayonining yana bir muhim yo'nalishi bemorni soddalashtirilgan yoki cheklangan ijtimoiy muhitga moslashtirish emas, balki uni normal ijtimoiy hayotga qaytarish, jamiyatda faol ishtirok etishiga sharoit yaratishdan iborat.

Motor afaziyada nutqni tiklash dasturi aniq vazifalar asosida amalga oshiriladi. Avvalo, so'zning bo'g'in tuzilishini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan patologik inertlikni bartaraf etishga qaratilgan mashqlar tashkil etiladi. Bunda bemorning artikulyatsion harakatlarini faollashtirish va nutqning ketma-ketligini tiklash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, til sezgisini qayta tiklash, fonematik farqlash va nutq apparati faoliyatini yaxshilash logopedik ishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Reabilitatsiya jarayonida so'z tanlashdagi qiyinchiliklar, nutqning sekinlashuvi va agrammatizm kabi holatlarni bartaraf etish ustida ham tizimli ish olib boriladi. Bundan tashqari, og'zaki va yozma nutqning tuzilishini tiklash, matnni tushunish va ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu bilan birga, motor afaziyada ko'pincha kuzatiladigan aleksiya va agrafiya holatlarini yengish, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmalarini qayta shakllantirish logopedik reabilitatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Afaziya nutq nuqsoni bo'lgan bemorlarda logopedik reabilitatsiya bosqichlari

№	Afaziya turi	Nutqdagi asosiy buzilishlar	Logopedik ishning asosiy yo'nalishlari
1	Motor afaziya	So'zlarni talaffuz qilishda qiyinchilik, bo'g'inlar ketma-ketligini buzilishi, agrammatizm	Artikulyatsion mashqlar, bo'g'in tuzilishini tiklash, so'z va gap tuzish mashqlari

2	Sensor afaziya	Nutqni tushunishning buzilishi, fonematik eshituvning pasayishi	Fonematik eshituvni rivojlantirish, eshitish orqali nutqni idrok etish mashqlari
3	Amnestik afaziya	Soʻzlarni eslab qolish va nomlashda qiyinchilik	Leksik zahirani boyitish, predmetlarni nomlash mashqlari
4	Dinamik afaziya	Mustaqil nutqni tashkil etishdagi qiyinchilik	Dialog va monolog nutqini rivojlantirish, muloqotga yoʻnaltirilgan mashqlar
5	Kompleks afaziya	Nutqning bir necha komponentlari buzilishi	Kompleks logopedik mashgʻulotlar, individual korreksion dastur

Logopedik reabilitatsiya ishining shakllantirilgan maqsad va vazifalari afaziya nutq nuqsoni boʻlgan bemorlarni shaxsiy hamda ijtimoiy jihatdan qayta tiklashga qaratilgan boʻlib, bu jarayonda amaliy samaradorlikka erishish muhim oʻrin tutadi. Afaziyada olib boriladigan logopedik ishlar reabilitatsiyaning zamonaviy ilmiy tamoyillariga asoslanadi va kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu jarayonda psixofiziologik, psixologik hamda psixologik-pedagogik tamoyillar oʻzaro uygʻun holda qoʻllaniladi.

Psixofiziologik tamoyillar logopedik ishni ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi. Bunda, avvalo, nutq nuqsonini toʻgʻri tasniflash muhim ahamiyatga ega boʻlib, u differensial vazifalarni belgilash va bemorning nutq buzilishiga mos usullarni tanlash imkonini beradi. Korreksion-logopedik mashgʻulotlarda bemorda saqlanib qolgan analizator tizimlaridan tayanch sifatida foydalanish nutqni tiklash jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ilgari zararlangan funksiyada bevosita ishtirok etmagan afferent aloqalar asosida yangi funksional tizimlarni shakllantirish ham muhim hisoblanadi. Reabilitatsiya jarayonida ruhiy funksiyalarning turli darajalariga, jumladan nutq faoliyatini tashkil etuvchi tizimlarga tayanish zarur. Bundan tashqari, bemorlarning bilish jarayonlari – xotira, diqqat, tafakkur va tasavvur kabi nisbatan saqlanib qolgan ruhiy funksiyalaridan foydalanish korreksion ish samaradorligini oshiradi. Logopedik mashgʻulotlar jarayonida nazorat tamoyiliga amal qilish ham muhim boʻlib, u bajarilayotgan mashqlar natijadorligini kuzatish va zarur hollarda metodik yondashuvni oʻzgartirish imkonini beradi.

Psixologik tamoyillar esa bemorning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda logopedik ishni tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda bemor shaxsini hurmat qilish, uning ruhiy holatini eʼtiborga olish va individual yondashuvni qoʻllash muhim hisoblanadi. Reabilitatsiya jarayonida bemorning saqlanib qolgan verbal va noverbal muloqot shakllariga tayanish, uning predmetli faoliyatini qoʻllab-quvvatlash ham muhim omillardan biridir. Shu bilan birga, bemor faoliyatini toʻgʻri tashkil etish, mashgʻulotlarni bosqichma-bosqich rejalashtirish hamda dasturlashtirilgan oʻqitish tamoyillaridan foydalanish logopedik ishni samarali olib borishga yordam beradi. Nutq nuqsoniga tizimli taʼsir etish tamoyili esa reabilitatsiya jarayonida barcha nutq komponentlarini kompleks ravishda tiklashni nazarda tutadi.

Psixologik-pedagogik tamoyillar logopedik mashgʻulotlarning metodik jihatdan toʻgʻri tashkil etilishini taʼminlaydi. Bu tamoyillarga koʻra, mashgʻulotlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etilib, oʻquv materiallari bosqichma-bosqich murakkablashtirib boriladi. Shu bilan birga, material hajmi va xilma-xilligini toʻgʻri tanlash ham muhim boʻlib, dastlab kichik hajmli va nisbatan sodda materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Mashgʻulotlarda ogʻzaki materialning hissiy murakkabligi ham hisobga olinadi, chunki bemorning psixologik holati nutqni tiklash jarayoniga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Bundan tashqari, materialning emotsional tomoni ham

muhim bo'lib, mashg'ulotlar jarayonida ijobiy emotsional muhit yaratish bemorlarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning ruhiy zo'riqlashini kamaytiradi.

Afaziya nutq nuqsoni bo'lgan bemorlarda logopedik reabilitatsiya bosqichlari

№	Reabilitatsiya bosqichi	Bosqichning mazmuni	Logopedik ish yo'nalishlari	Kutilayotgan natija
1	Diagnostik bosqich	Bemorning nutq holati va oliy psixik funksiyalarini aniqlash	Neyropsixologik tekshiruv, suhbat, kuzatish, nutqni baholash	Nutq buzilishining turi va darajasi aniqlanadi
2	Dastlabki tiklash bosqichi	Nutq faoliyatini faollashtirish va saqlangan funksiyalarga tayanish	Artikulyatsion mashqlar, oddiy nutqiy topshiriqlar, fonematik eshituvni rivojlantirish	Nutqiy faollik asta-sekin tiklana boshlaydi
3	Asosiy korreksion bosqich	Nutqning asosiy komponentlarini tizimli ravishda tiklash	So'z boyligini oshirish, gap tuzish, og'zaki nutqni rivojlantirish, yozma nutq ustida ishlash	Nutqning kommunikativ funksiyasi rivojlanadi
4	Mustahkamlash bosqichi	Olingan ko'nikmalarni barqarorlashtirish	Muloqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, dialog va monolog nutqi	Nutq barqarorlashadi, mustaqil nutq shakllanadi
5	Ijtimoiy moslashuv bosqichi	Bemorni ijtimoiy muhitga qayta moslashtirish	Kundalik hayotga oid nutqiy mashqlar, kommunikativ vaziyatlar yaratish	Bemor ijtimoiy hayotga faol qaytadi

Afaziya nutq nuqsoni bo'lgan bemorlarni o'qitish amaliyotida qo'llaniladigan usullar ham muayyan talablarga javob berishi kerak. Eng avvalo, tanlangan usullar nutq buzilishining mexanizmiga mos bo'lishi lozim. Shuningdek, logopedik ta'sir faqat nuqsonga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmasdan, balki saqlanib qolgan funksional tizimlar va darajalarga tayanish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv nutqni tiklash jarayonini samaraliroq tashkil etishga yordam beradi. Bundan tashqari, qo'llanilayotgan usullar tizimli bo'lishi, ya'ni ular o'zaro bog'liq va maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llanilishi zarur.

Afaziya nutq nuqsoni bo'lgan bemorlar bilan ishlashda qo'llaniladigan logopedik metodlar

№	Metod nomi	Metodning mazmuni	Qo'llash maqsadi
1	Neyropsixologik tekshiruv metodi	Bemorning nutq, xotira, diqqat, tafakkur va praksis holatini kompleks o'rganish	Nutq buzilishining turi va darajasini aniqlash
2	Kuzatish metodi	Bemorning kundalik muloqoti va nutqiy faoliyatini kuzatish	Nutqdagi real qiyinchiliklarni aniqlash
3	Suhbat metodi	Bemor va uning yaqinlari bilan muloqot orqali ma'lumot to'plash	Reabilitatsiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish

4	Artikulyatsion mashqlar metodi	Nutq faollashtiruvchi mashqlar tizimi	apparatini maxsus	Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni tiklash
5	Fonematik eshituvni rivojlantirish metodi	Tovushlarni farqlash va eshitish orqali nutqni idrok etishni rivojlantirish		Nutqni tushunish va talaffuzni yaxshilash
6	So'z va gap tuzish mashqlari	So'z boyligini oshirish, grammatik tuzilmani shakllantirish		Og'zaki nutqni tiklash
7	O'qish va yozuvni tiklash metodi	Aleksiya va agrafiyaning bartaraf etishga qaratilgan mashqlar		Yozma nutqni rivojlantirish
8	Kommunikativ metod	Muloqot vaziyatlari asosida mashg'ulotlar tashkil etish		Bemorning ijtimoiy muloqotini tiklash

Nutq nuqsonini bartaraf etish samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri bemorlarning korreksion-logopedik mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishdir. Bu jarayonda bemorning bo'sh vaqtini to'g'ri rejalashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlarni tashkil etishda dars davomiyligini belgilash, bemorning ish qobiliyati va tez charchashini hisobga olish zarur. Shuningdek, bemorning kayfiyati va umumiy ahvoli, mashg'ulotni tashkil etish shakli hamda o'tkazish sharoitlarining qulayligi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Korreksion logopedik ish jarayonini to'g'ri tashkil etish bemorlarning umumiy xulq-atvoridagi, shuningdek, nuqsonga bo'lgan shaxsiy munosabatidagi turli og'ishlarni bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu jarayon bemorning ijtimoiylashuvini tiklash va uni jamiyat hayotiga qayta jalb etish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Bemor va uning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot o'rnatish, neyropsixologik tekshiruvni aniq tashkil etish hamda ilmiy asoslangan metod va shakllardan foydalanish tiklovchi ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, korreksion logopedik ish bemorni neyropsixologik reabilitatsiya qilish jarayonining ajralmas va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Korreksion logopedik ish umumiy uslubiy tashkil etish o'z tarkibiga bir qator o'zaro bog'liq komponentlarni kiritadi: neyropsixologik tekshiruv; bemor va uning yaqinlari bilan aloqa o'rnatish; nuqsonga ta'sir ko'rsatishning umumiy usullari; differensial uslubiy yondashuv; korreksion logopedik ishni tashkil etish shakllari.

Murakkab harakat akti bo'lgan ekspressiv nutq o'z tarkibiga artikulyatsiyalarning kerakli moddiy sxemalarini yaratuvchi afferent sintezlar sistemasini ham, nutqni amalga oshiruvchi va uni ravon kinetik jarayonga aylantirishga imkon beruvchi efferent apparatlar sistemasini ham oladi. Bu jarayon motor-nutq zonasining oldingi bo'limlari - Brok zonasi zararlanganda buziladi. Asosiy nuqson talaffuz qilinayotgan nutqning bir bo'g'inidan keyingisiga tez va ravon o'tish imkoniyatining yo'qolishida namoyon bo'ladi. Bunday hollarda harakat po'stlog'ining nutq zonalarida yuzaga keladigan buzilishlar shunga olib kelishi mumkinki, artikulyatsiyasi saqlanib qolgan alohida tovushni yaxshi talaffuz qiladigan bemor keyingi tovushga o'ta olmaydi va buning o'rniga oldingi tovushni talaffuz qilishni davom ettiradi yoki oldingi tovushni kerakli tovush bilan kontaminatsiya qiladi. Mana shunday o'zgarishlar natijasida motor afaziya paydo bo'ladi.

Xulosa. Korreksion-pedagogik ishlar insult yoki shikastlanish sodir bo'lgan dastlabki hafta va kunlardan boshlab shifokor ruxsati va nazorati ostida boshlanadi. Mashg'ulotlarni erta boshlash patologik alomatlar fiksatsiyasining oldini oladi va tiklanishni eng maqsadga muvofiq yo'lga yo'naltiradi. Buzilgan psixik funksiyalarni tiklash uzoq davom etadigan logopedik mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Амосова Н. Н., Каплина Н. И. Практические упражнения для восстановления речи у больных после инсульта, черепно-мозговой травмы и других заболеваний мозга. – Москва: Издательство, 2007. – 144 с.
2. Визель Т. Г. Основы нейропсихологии. – Москва: АСТ, 2009. – 320 с.
3. Крупенчук О. И., Воробьева Т. А. Логопедические упражнения: артикуляционная гимнастика. – Санкт-Петербург: Издательский Дом «Литера», 2004. – 64 с.
4. Лапина Н. М. Атипичные афазии: восстановительное обучение на ранней стадии заболевания: методическое пособие для практикующих логопедов. – Москва: Сфера, 2007. – 64 с.
5. G'ulomova S. S., Turdaliyeva Sh. H. Neyroreabilitatsiyasida hissiy buzilishlarga ega bolalar uchun sensor integratsiya usuli // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences: International scientific-online conference. – Toshkent, 2024. – B. 112–115.